O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Nurmatov Nurbek Ermat o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Lapasov Zafar Akmal o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi talabasi
Chorshanbiyev Oybek Ilhom o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy-geografik xususiyatlari, hududiy rivojlanish omillari va joylashuv qonuniyatlari tahlil qilingan. Chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishida tabiiy-iqlim sharoitlari, yaylov va ozuqa bazasi, suv resurslari, mehnat resurslari, aholi zichligi, iste’mol bozori hamda transport-infratuzilma omillarining o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Chorvachilik mahsulotlari, iqtisodiy geografiya, hududiy ixtisoslashuv, chorvachilik tarmoqlari, ozuqa bazasi, yaylovlar, go‘sht yetishtirish, sut yetishtirish, parrandachilik, qoramolchilik, qo‘ychilik, hududiy rivojlanish, iqtisodiy-geografik omillar.*

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Нурматов Нурбек Ермат оглу
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры географии
Лапасов Зафар Акмал оглу
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Студент кафедры географии и основ экономики
Чоршанбиев Ойбек Ильхом оглу
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Студент кафедры географии и основ экономики

Аннотация: *В данной статье анализируются экономико-географические характеристики животноводства в Узбекистане, факторы регионального развития и модели размещения предприятий. Подчеркивается роль природных и климатических условий, пастбищной и кормовой базы, водных ресурсов, трудовых ресурсов, плотности населения, потребительского рынка, а также транспортных и инфраструктурных факторов в развитии животноводческого сектора.*

Ключевые слова: *продукция животноводства, экономическая география, региональная специализация, животноводческие сектора, кормовая база, пастбища, производство мяса, молочное производство, птицеводство, животноводство, овцеводство, региональное развитие, экономико-географические факторы.*

ECONOMIC-GEOGRAPHIC CHARACTERISTICS OF LIVESTOCK PRODUCT PRODUCTION IN UZBEKISTAN

Nurmatov Nurbek Ermat o‘g‘li
Shahrisabz State Pedagogical Institute
Lecturer, Department of Geography
Lapasov Zafar Akmal o‘g‘li
Shahrisabz State Pedagogical Institute
Student, Geography and Fundamentals of Economic Knowledge

Chorshanbiyev Oybek Ilhom o‘g‘li
Shahrisabz State Pedagogical Institute
Student, Geography and Fundamentals of Economic Knowledge

Abstract: *This article analyzes the economic-geographic characteristics, factors of regional development, and locational patterns of livestock production in Uzbekistan. It highlights the role of natural-climatic conditions, pasture and feed bases, water and labor resources, population density, consumer markets, and transport infrastructure in the development of the livestock sector.*

Keywords: *Livestock products, economic geography, regional specialization, livestock sectors, feed base, pastures, meat production, milk production, poultry farming, cattle farming, sheep farming, regional development, economic-geographic factors.*

Chorvachilik tarmog‘i bugungi kunda jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, global oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Aholi sonining jadal o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlarining kengayishi hamda iste’mol tarkibining o‘zgarishi natijasida go‘sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda intensiv chorvachilik tizimlariga o‘tish, yuqori mahsuldor zotlarni joriy etish, yem-xashak bazasini mustahkamlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali tarmoq samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, chorvachilik ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishi tabiiy-iqlimiy sharoitlar, resurslar taqsimoti va bozor omillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu esa uning iqtisodiy geografik jihatdan chuqur o‘rganilishini taqozo etadi.

O‘zbekistonda chorvachilik qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanib, mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Respublikada chorvachilikning rivojlanishi hududlarning tabiiy geografik xususiyatlari, xususan, yaylov va ozuqa resurslarining mavjudligi, suv ta’minoti, iqlim sharoiti hamda aholi zichligi bilan bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda tarmoqni modernizatsiya qilish, naslchilik ishlarini takomillashtirish, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq, ayrim hududlarda yem-xashak bazasining yetarli darajada

rivojlanmaganligi, ishlab chiqarish infratuzilmasining sustligi hamda mahsulotlarni qayta ishlash darajasining pastligi kabi muammolar mavjud.

Mazkur sharoitda O‘zbekistonda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy geografik xususiyatlarini kompleks o‘rganish alohida dolzarblik kasb etadi. Hududlar kesimida chorvachilikning ixtisoslashuvi, resurs salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarish va qayta ishlash zanjirining hududiy tashkil etilishini takomillashtirish, logistika va bozor infratuzilmasini rivojlantirish masalalari ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, chorvachilik tarmog‘ining hududiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash ushbu paragrafning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Go‘sht-sut chorvachiligi qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi tabiiy-geografik va iqtisodiy omillar bilan bevosita bog‘liq. Ushbu tarmoq chorva mollarini yetishtirish, ularning mahsuldorligini oshirish hamda go‘sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Tabiiy omillar ichida iqlim sharoiti, yaylov va o‘tloqlarning sifati, suv resurslarining mavjudligi asosiy rol o‘ynaydi. Iqlimi mo‘tadil va namgarchilik yetarli bo‘lgan hududlarda sut chorvachiligi rivojlangan bo‘lsa, quruq va cho‘l hududlarda asosan go‘sht chorvachiligi ustunlik qiladi. Bundan tashqari, mintaqaning geografik joylashuvi, transport infratuzilmasi va bozorlarga yaqinligi chorvachilik mahsulotlarining realizatsiya jarayonida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy omillar nuqtayi nazaridan, go‘sht-sut chorvachiligining rivojlanishi subsidiya va kredit siyosati, davlat tomonidan qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash darajasi, texnologik innovatsiyalar bilan bog‘liq. Zamonaviy chorvachilik komplekslarida genetik seleksiya, sifatli yem bazasi yaratish va sog‘lom chorva parvarishi kabi ilg‘or usullar joriy etilmoqda. Shuningdek, go‘sht-sut mahsulotlariga bo‘lgan talabning o‘sishi va global oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bu tarmoqning strategik ahamiyatini oshirmoqda.

Biroq, ekologik muammolar, jumladan yaylovlarning degradatsiyasi, yem resurslarining yetishmovchiligi va chorva chiqindilarining atrof-muhitga ta’siri kabi muammolar ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, go‘sht-sut chorvachiligini rivojlantirishda resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) va Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan e’lon qilingan 2022-2031 yillar uchun qishloq xo‘jaligi istiqbollari hisobotida go‘sht-sut chorvachiligi tarmog‘ining rivojlanishi bo‘yicha muhim ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu hisobotga ko‘ra, agar hozirgi tendensiyalar davom etsa, 2030-yilga kelib “Nol ochlik” maqsadiga erishish qiyin bo‘ladi va qishloq xo‘jaligidan chiqadigan issiqxona gazlari emissiyasi o‘sishda davom etadi. Shu sababli, kelgusi o‘n yil ichida qishloq xo‘jaligiga, jumladan, go‘sht-sut chorvachiligiga investitsiyalar va innovatsiyalarni oshirish, texnologiyalar transferini ta’minlash zarur. Bundan tashqari, oziq-ovqat yo‘qotishlari va chiqindilarini kamaytirish, ortiqcha kaloriya va protein iste’molini cheklash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish lozim.

O‘zbekistonda go‘sht-sut chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy geografik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning rivojlanishiga tabiiy resurslar, iqlim sharoiti, demografik omillar va infratuzilma ta’sir ko‘rsatadi. Respublikada chorvachilik, ayniqsa, go‘sht-sut yo‘nalishi an’anaviy tarmoq bo‘lib, aholi ehtiyojini qondirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatning turli hududlari tabiiy sharoitiga qarab chorvachilikning alohida yo‘nalishlariga ixtisoslashgan. Masalan, Farg‘ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlarida sut chorvachiligi rivojlangan bo‘lsa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida yaylov chorvachiligi keng tarqalgan. O‘zbekistonning janubiy va g‘arbiy hududlari quruq iqlimi sababli asosan qo‘y va echki boqishga mos keladi, markaziy va shimoliy hududlar esa

qoramolchilik uchun qulay sharoitga ega. Yirik shoxli qoramollar soni bo‘yicha Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Qo‘y va echkilar soni bo‘yicha Qashqadaryo viloyati respublikada birinchi o‘rinda turadi, bu esa viloyatning keng yaylov maydonlari va tabiiy sharoiti bilan izohlanadi. chorvachilik tarmog‘ining hududiy rivojlanish darajasi tabiiy resurslar, yem-xashak bazasi, chorva bosh soni hamda ishlab chiqarish ixtisoslashuvi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Qashqadaryo viloyati qoramolchilik va qo‘ychilik yo‘nalishlari bo‘yicha respublikaning yetakchi hududlaridan biri sifatida ajralib turadi.

Iqtisodiy jihatdan olib qaraganda, go‘sht-sut chorvachilik tarmog‘i mamlakat qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining muhim qismini tashkil etadi. So‘nggi yillarda davlat tomonidan chorvachilikni rivojlantirish uchun subsidiyalar ajratilishi, kredit resurslari taqdim etilishi hamda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi bu tarmoqning o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy hududlari kesimida yetishtirilgan go‘sht va sut to‘g‘risida ma’lumot (2010-2024-yillar, ming tonna)

	Go‘sht				Sut			
	2010	**2015**	**2020**	**2024**	**2010**	**2015**	**2020**	**2024**
O‘zbekiston Respublikasi	**1461,4**	**2033,4**	**2519,4**	**2942,5**	**6169**	**9027,8**	**10975,0**	**12443,8**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	58,9	88,4	111,1	129,8	183,6	322,1	404,8	469,7
Andijon	91,9	126,1	157,1	202,2	540,9	822,2	978,2	1119,2
Buxoro	140,2	195,4	262,7	312,7	539,3	779,1	1002,6	1136,7
Jizzax	124,2	176,8	217,2	246,8	334,3	501	627,2	713,6
Qashqadaryo	178,7	247,8	301,9	345,9	657,2	952,2	1179,4	1380,1
Navoiy	93,3	133,2	165,1	196,6	271,8	388,5	483	566,9
Namangan	81,5	114,7	156,7	182,4	384,9	581	724,2	804,1
Samarqand	179,9	244,4	286	326,9	759,3	1132,3	1307,3	1456,0
Surxondaryo	113,3	155,6	193,6	220,0	508,2	750,2	885,7	974,3
Sirdaryo	40,1	56,8	65,6	80,4	200,4	290,3	356,2	414,2
Toshkent	166	226,7	265,5	312,3	568	787	922	1080,6

Farg‘ona	98,1	138,9	173	195,0	588,8	854,5	1050,4	1191,1
Xorazm	95,3	128,6	163,9	191,5	632,3	867,4	1054	1137,3

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Ushbu muammolarni hal etish uchun ilmiy yondashuv asosida intensiv chorvachilik texnologiyalarini joriy qilish, naslchilik ishlarini rivojlantirish va ekologik muvozanatni saqlash zarur hisoblanadi.

Go‘sht ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududlarini uchta guruhga ajratish mumkin: yuqori ishlab chiqarish hajmiga ega hududlar, o‘rta darajadagi hududlar va past ishlab chiqarish hajmiga ega hududlar. Yuqori ishlab chiqarish hajmiga ega viloyatlar Qashqadaryo (345,9 ming tonna), Samarqand (326,9 ming tonna), Toshkent (312,3 ming tonna) va Buxoro (312,7 ming tonna) bo‘lib, ular mamlakatning asosiy go‘sht yetishtiruvchi hududlari hisoblanadi Yetishtirilgan go‘sht hajmida asosiy ulush yirik shoxli qoramollar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu viloyatlar umumiy ishlab chiqarish hajmining taxminan 43,5% ini ta’minlaydi. Ularning yetakchilik qilishi tabiiy resurslarning yetarli bo‘lishi, yirik yaylovlarning mavjudligi va ixtisoslashgan dehqon xo‘jaliklari bilan bog‘liq.

O‘rta ishlab chiqarish hajmiga ega viloyatlar guruhiga Andijon (202,2 ming tonna), Farg‘ona (195,0 ming tonna), Xorazm (191,5 ming tonna), Navoiy (196,6 ming tonna), Surxondaryo (220,0 ming tonna), Namangan (182,4 ming tonna) va Jizzax (246,8 ming tonna) kiradi. Bu hududlar go‘sht ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynasa-da, ishlab chiqarish hajmi yetakchi viloyatlarga nisbatan pastroq. Ushbu viloyatlar umumiy ishlab chiqarishning 41,2% ini tashkil qiladi. Ularning ishlab chiqarish hajmi asosan chorvachilikning an’anaviy shakllari, iqtisodiy infratuzilma va yaylov resurslarining chegaralanganligi bilan bog‘liq.

Past ishlab chiqarish hajmiga ega hududlar esa Sirdaryo (80,4 ming tonna) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (129,8 ming tonna) bo‘lib, ular mamlakatdagi umumiy ishlab chiqarish hajmining 7,1 foizini ta’minlaydi. Ushbu hududlarda go‘sht ishlab chiqarish asosan cheklangan tabiiy resurslar va chorvachilikka

yaroqli yaylovlarning kamligi bilan bog‘liq. Ayniqsa, Sirdaryo viloyatida go‘sht ishlab chiqarish hajmi eng past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bu hududning agrar sektorda paxtachilik va g‘allachilikka ixtisoslashgani bilan bog‘liq Qashqadaryo viloyati go‘sht yetishtirish bo‘yicha mamlakatda yetakchi viloyatlardan biri hisoblanib, 2024-yilda 345,9 ming tonna go‘sht ishlab chiqarilgan. Bu O‘zbekiston bo‘yicha umumiy ishlab chiqarishning 11,8% ini tashkil etadi. Qashqadaryo hududida chorvachilikning rivojlanishi uning keng yaylov resurslariga ega ekani va aholi tomonidan an’anaviy chorvachilik usullarining saqlanib qolishi bilan bog‘liq. Biroq, viloyatda suv resurslarining taqchilligi va yaylovlarning degradatsiyasi kabi muammolar mavjud bo‘lib, bu kelajakda go‘sht ishlab chiqarish hajmiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, intensiv chorvachilik texnologiyalarini joriy etish va yaylovlardan oqilona foydalanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida sut ishlab chiqarish bo‘yicha ma’muriy hududlarni ham uchta guruhga ajratish mumkin: yuqori ishlab chiqarish hajmiga ega hududlar, o‘rta darajadagi hududlar va past ishlab chiqarish hajmiga ega hududlar**.** **y**uqori ishlab chiqarish hajmiga ega viloyatlar Samarqand (1456,0 ming tonna), Qashqadaryo (1380,1 ming tonna), Farg‘ona (1191,1 ming tonna), Buxoro (1136,7 ming tonna) va Xorazm (1137,3 ming tonna) hisoblanadi. Ushbu hududlar mamlakatda yetishtirilayotgan sutning 45,9% ini ta’minlab, yirik chorvachilik xo‘jaliklari va an’anaviy sut yetishtirish tajribasi bilan ajralib turadi (1.2-jadvalga qarang).

O‘rta ishlab chiqarish hajmiga ega hududlar tarkibiga Andijon (1119,2 ming tonna), Toshkent (1080,6 ming tonna), Surxondaryo (974,3 ming tonna), Namangan (804,1 ming tonna), Jizzax (713,6 ming tonna) va Navoiy (566,9 ming tonna) kiradi. Ushbu hududlar umumiy ishlab chiqarishning 39,4% ini tashkil qiladi. Bu hududlarning sut ishlab chiqarish hajmi chorvachilik infratuzilmasining o‘sishi va qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, iqlim sharoiti va yem resurslarining mavjudligi bu hududlarda sut ishlab chiqarish darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Past ishlab chiqarish hajmiga ega hududlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi (469,7 ming tonna) va Sirdaryo (414,2 ming tonna) bo‘lib, bu hududlar mamlakat umumiy ishlab chiqarish hajmining 7,1% ini ta’minlaydi. Bu hududlarda yaylovlarning sifati, chorva sonining nisbatan kamligi va yem bazasining cheklanganligi sut ishlab chiqarishning past bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarish hajmi cheklangan bo‘lib, bu hududning qishloq xo‘jaligidagi asosiy yo‘nalishi paxta va g‘alla yetishtirish bilan bog‘liq.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hududiy jihatdan bir xil taqsimlanmaganligini ko‘rsatadi. Chorvachilikning rivojlanish darajasi tabiiy-iqlim sharoitlari, yaylov va ozuqa bazasi, suv resurslari, chorva soni, aholi zichligi hamda ishlab chiqarish va transport infratuzilmasi bilan chambarchas bog‘liq. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, go‘sht yetishtirishda Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Toshkent viloyatlari, sut yetishtirishda esa Samarqand, Qashqadaryo, Farg‘ona, Xorazm va Buxoro viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bu hududlarning yuqori natijalari chorvachilik uchun mavjud tabiiy resurslar, ozuqa bazasi va shakllangan xo‘jalik ixtisoslashuvi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda yem-xashak bazasining cheklanganligi, suv taqchilligi, yaylovlar degradatsiyasi va qayta ishlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi chorvachilikning samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli hududlarning tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish, intensiv chorvachilik texnologiyalarini joriy etish, naslchilik ishlarini rivojlantirish hamda ishlab chiqarish-qayta ishlash-logistika tizimini takomillashtirish O‘zbekistonda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni yanada rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmatov N.E. Economic and geographical factors of regional organization of agriculture and innovative development // International multidisciplinary journal for Research & development. - India, eISSN 2394-6334 Volume 10, issue 12 (2023) -P. 439-442.

2. Nurmatov N.E. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog‘i rivojlanishiga ta’sirining asosiy xususiyatlari // Экономика и социум. Saratov, RF

№2(117) февраль 2024.Часть1.–С. 510-517. (11.00.00; Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари, №11).

3. Nurmatov N.E. Chorvachilikni rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi tabiiy sharoit va resurs omillarining asosiy xususiyatlari // O‘zbekiston zamini ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. ISSN 2181-9955.https://doi.org/ 10.63027/ 2024. №4. – B. 69-71. (11.00.00; Milliy nashrlar, №1).

4. Nurmatov N.E. Economic and geographical factors affecting livestock development in ensuring food security // Eurasian journal of history, geography and economics. Genius journals publishing group, Brussels, Belgium. volume 39, december 2024. – P.43-46. (11.00.00; Yevropa mamlakatlari nashrlari ,№39)

5. Nurmatov N.E**.** Qashqadaryo viloyatida chorvachilik tarmog‘i rivojlanishining hududiy xususiyatlari // Ilim ha’m ja’miyet, 2025. №3/1 -Nukus, - B. 32-35. (11.00.02; Milliy nashrlar , №10).

6. Nurmatov N.E. Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha yetishtirishning iqtisodiy geografik jihatlari // Экономика и социум. №3 (130) - Saratov, RF, 2025. Часть1. – С. 289- 295. (11.00.00; Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари, №11).

7. Fayzullayev M.A, Nurmatov N.E. Aholini chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta’minlashning iqtisodiy geografik asoslari // “Geodeziya, kartografiya va geoinformatika” Ilmiy-texnik jurnal 2026. №1. - B. 161-166.

8. Safarov I. B., Chorshanbiyeva R. A. Qashqadaryo viloyatidagi ekologik-geografik muammolar //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – С. 153-157.

9. Safarov I. B. et al. Iqlim o'zgarishini qishloq xo'jaligiga ta'siri //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – С. 158-161.